Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	



TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLAR SMETASI IJROSINING DASTLABKI HISOBINI YURITILISHI

Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

e-mail: FIsoqulov@TK.mf.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritish tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar yoritilgan. Unda oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosini tuzish va tasdiqlash, shuningdek, dastlabki hisobni yuritishning nazariy asoslari va amaliy holati tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosini nazorat qilishda dastlabki hisob yuritishning o'рни va ahamiyati asoslab berilgan. Smetaviy rejalashtirish, xarajat turlarini aniq belgilash, moliyaviy intizomga rioya etish hamda xarajatlarni belgilangan limitlar doirasida amalga oshirishda dastlabki hisobning vositaviy roli tahlil qilingan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida dastlabki hisob yuritish tartibi, buxgalteriya hujjatlari bilan o'zaro bog'liqligi va ichki moliyaviy nazorat mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kaliit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, moliya yili, xarajatlar, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar, daromadlar va xarajatlar smetasi, UzASBO dasturiy majmuasi, dastlabki hisob, moliyaviy intizom, buxgalteriya hujjatlari, smetaviy rejalashtirish, byudjet mablag'lari, ichki nazorat, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article presents research aimed at improving the procedure for maintaining preliminary accounting of expenditure budget execution in higher educational institutions. It examines the theoretical foundations and practical aspects of preparing, approving, and managing budget execution, as well as identifying existing challenges. The role and importance of preliminary accounting in controlling budget execution are substantiated. The intermediary role of preliminary accounting in budget planning, clarification of expenditure categories, adherence to financial discipline, and implementation of expenditures within set limits are analyzed. The procedures for maintaining accounting based on current legal regulations, the connection with accounting documents, and internal financial control mechanisms are also reviewed. Finally, scientific and practical recommendations are proposed for improving the preliminary accounting of expenditure budget execution.

Key words: higher education institutions, fiscal year, expenditures, expenditure budget, expenditure items, revenues, revenue and expenditure budget, UzASBO software, preliminary accounting, financial discipline, accounting documents, budget planning, budget funds, internal control, financial reporting.

Аннотация: В статье представлены исследования, направленные на совершенствование порядка ведения предварительного учета исполнения сметы расходов в высших учебных заведениях. Рассмотрены теоретические основы и практические аспекты составления, утверждения и ведения учета исполнения сметы расходов, а также выявлены существующие проблемы. Обоснована роль и значение предварительного учета в контроле исполнения сметы расходов в образовательных учреждениях. Проанализированы посредническая роль предварительного учета в бюджетном планировании, классификация видов расходов, соблюдение финансовой дисциплины и выполнение расходов в пределах установленных лимитов. Изучены нормы действующих нормативно-правовых актов, порядок ведения учета, взаимосвязь с бухгалтерскими документами и механизмами внутреннего финансового контроля. В завершение предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию учета исполнения сметы расходов.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, финансовый год, расходы, смета расходов, статьи расходов, доходы, смета доходов и расходов, UzASBO, предварительный учет, финансовая дисциплина, бухгалтерские документы, бюджетное планирование, бюджетные средства, внутренний контроль, финансовая отчетность.



KIRISH

Ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda moliyaviy mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, byudjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlashda xarajatlar smetasining to'g'ri shakllantirilishi va uning ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishi zarur. Bu jarayonda dastlabki hisob yuritish mexanizmlari ta'lim muassasasining moliyaviy intizomini mustahkamlash, ortiqcha yoki maqsadsiz xarajatlarning oldini olish, shuningdek, aniq va asosli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Dastlabki hisob — bu smeta asosida amalga oshirilayotgan har bir xarajatni puxta hujjatlashtirish, tasdiqlash va nazorat qilish bosqichidir. Mazkur jarayonning to'g'ri yo'lga qo'yilishi ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligiga xizmat qiladi. Shu bois, xarajatlar smetasining ijrosini nazorat qilishda dastlabki hisob yuritishning tashkiliy va uslubiy jihatlarini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan shu masalaga e'tibor qaratilib, ta'lim tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritish tartibi, me'yoriy asoslari, amaliy muammolari va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida masalaning dolzarbligi alohida ta'kidlandi: "Har bir deputat o'zining okrugidagi byudjet hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatni talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonlari va xizmatlar ko'rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida davlat muassasasi shaklida "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi tashkil etildi.

Mamlakatimiz byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlar bo'yicha, to'rt guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasi va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan ilova bilan birgalikda me'yoriy shaklda tuziladi.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish, ularga o'zgartirishlar kiritish hamda xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisob-kitob va hisobotlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining nazoratini ta'minlash va moliyaviy intizomni kuchaytirishda dastlabki hisob yuritish tizimi muhim vosita hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy manbalar buxgalteriya amaliyotining mazmuni va uslubiy asoslarini yoritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatma" (2023-yil) esa ta'lim muassasalarida amalda qo'llanilayotgan hisob siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini belgilaydi. Ushbu hujjatda asosiy vositalar, moddiy boyliklar, ish haqi, xizmatlar va grant mablag'lari hisobining yuritilish tartibi alohida ko'rsatilgan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmaga ko'ra, har bir xarajat amalga oshirilishidan avval dastlabki tahlil va hujjatlashtirish ishlari bajarilishi lozim. Bunda xarajatlar quyidagi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi:

xarid (buyurtma) arizasi;

smetadagi tegishli band bo'yicha limit mavjudligi haqida ma'lumot;

ta'minotchi bilan tuzilgan shartnoma (agar mavjud bo'lsa);

ichki rozilik (direktor, buxgalter, moliyachi imzosi).

Ushbu hujjatlar asosida xarajatlar buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va moliyaviy hisobotlarda ko'rsatiladi. (1-jadval)

1-jadval. Uslubiy ko'rsatmaga asosan namunaviy tahlil (shartli ma'lumotlar asosida)¹

Yo'nalish nomi	Smetada ko'rsatilgan miqdor (mln so'm)	Amalga oshirilgan xarajat (mln so'm)	Tafvut (±)	Izoh
Ish haqi	350.0	348.5	-1.5	Normativga muvofiq
Kommunal xizmatlar	70.0	75.2	+5.2	Limitdan oshgan

1 Muallif ishlanmasi



O'quv materiallari xarajatlari	45.0	43.0	-2.0	Tejash amalga oshirilgan
Xo'jalik xarajatlari	60.0	61.5	+1.5	Rejalashtirilmagan xarid
Kapital xarajatlar	100.0	98.7	-1.3	Raqamli texnika xaridi kechiktirildi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari, jumladan, M.A. Tursunov va B.A. Xasanovlarning ilmiy ishlarida ta'lim sohasida buxgalteriya hisobi yuritishning nazariy asoslari, shuningdek, amaliy muammolari tahlil qilingan. Mualliflar davlat moliyasining shaffofligi va samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobotlarining to'g'riligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy adabiyotlarda, masalan, P. Collier tomonidan 2016-yilda yozilgan "Accounting for Public Sector Entities" asarida davlatga qarashli ta'lim muassasalarida hisob yuritishda javobgarlik, manfaatdorlik va audit mexanizmlarining tutgan o'rnini keng yoritilgan. Muallif buxgalteriya hisobini nafaqat moliyaviy hisobot vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi instrument sifatida tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada turli tahlil usullari, jumladan taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, guruhlash kabi usullar keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi har yili kelgusi moliya yili uchun budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan respublika oliy ta'lim muassasalarining guruhlariga bo'yicha bir talabani o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlarini tasdiqlaydilar. Bir talabani o'qitish uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativlarini aniqlashda oliy ta'lim muassasalari, talabalarni tayyorlashning asosiy yo'nalishiga ko'ra, to'qqizta guruhga bo'linadi. (2-jadval)

2-jadval. "Smeta" atamasiga iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarning qiyosiy tavsifi

Asarning manbasi	Keltirilgan ta'riflar
Borisov A.V. <i>Bolshoy ekonomicheskij slovar.</i> M., 2000-yil, 220-bet.	Smeta – tashkilot yoki muassasani moliyalashtirish uchun kutilayotgan daromadlar va xarajatlarni hisob-kitob qilishda foydalaniladigan pul mablag'larining tushumi va sarflanishini buxgalteriya hisobida aks ettiruvchi hujjatdir. Smeta moliyaviy rejaning eng oddiy shaklidir.
Azrilyan A.N. <i>Bolshoy ekonomicheskij slovar.</i> M., 2002-yil, 140-bet.	Budjet tashkilotining smetasi – davlat budjetidan moliyalashtiriladigan noishlab chiqarish tashkiloti yoki muassasasini moliyalashtirish uchun asosiy reja hujjatidir. U muassasaning barcha xarajatlari hajmi, maqsadli yo'nalishi va kvartallar bo'yicha taqsimotini belgilaydi.
Malyarevskiy Yu.D.; Saxartseva I.I. <i>Byudjetnyy uchët.</i> X., 2003-yil; K., 2007-yil.	Budjet tashkilotining smetasi – asosiy reja hujjati bo'lib, u tashkilotning funksiyalarini amalga oshirish uchun mablag'lar hajmi va yo'nalishini ko'rsatgan holda daromad va xarajatlarni amalga oshirishga kafolat beradi.
Baybusinov M.Z. "Xarajatlar smetasi tuzishning ba'zi masalalari"	Smeta – barcha boshqaruv qarorlarini aks ettiradi, xizmat ko'rsatish (ish bajarish) va ularni sotish hajmini oqilona hisoblab chiqadi, xarajatlar va resurslarni iqtisodiy baholaydi hamda tashkilotning yakuniy natijalarini hisobga olib boradi.
Pardayev A.X., Pardayev B.X. <i>Boshqaruv hisobi.</i> T.: G'afur G'ulom nomidagi NMII, 2008-yil, 107-bet.	Iqtisodiy adabiyotlarda budjet ko'pincha reja sifatida ifodalanib, u miqdoriy (ko'pincha pul) ko'rsatkichlarda va ma'lum bir muddatga (asosan bir yilga) tuziladi.
Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. <i>Boshqaruv hisobi.</i> Darslik – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2014-yil, 396-bet.	Budjet haqida gap ketganda, ko'pchilik korxona rahbarlari uni faqat davlat moliyasi bilan bog'lab tushunishadi. Biroq zamonaviy boshqaruvda budjet – bu korxona va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilish va yuritish vositasi sifatida qaralishi lozim.
I. Norqulov, O. Maxmudov. <i>Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'ati.</i> T.: "Sahhof" nashriyoti, 2022-yil, 424-bet.	Smeta – bu: 1) Qurilish, montaj ishlari va uskunalar xaridiga ketgan mehnat, material va pul xarajatlari miqdorini ko'rsatadigan hujjat; 2) Moliyaviy rejalarning bir turi bo'lib, asosan xarajatlar aks ettiriladi.
Muallif taklifi:	Smeta – bu oliy ta'lim muassasasi faoliyatini moliyalashtirish maqsadida, bir moliya yili uchun choraklar kesimida daromadlar va xarajatlar smetasini hamda shtatlar jadvalini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzish jarayonidir.



Manba: Muallif ishlanmasi.

Budjet tashkilotlarida smeta tuzish amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 18-bobi — "Xarajatlar smetalari va shtat jadvallari tuzish hamda tasdiqlash, ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi"ning 102-moddasi — "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari tuzish"da xarajatlar smetalari budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda: xarajatlarning birinchi – uchinchi guruhlar bo'yicha xarajat moddalariga ajratilib, xarajatlarning to'rtinchi guruhi bo'yicha esa xarajat moddalariga ajratilmagan holda tuzilishi belgilab qo'yilgan.

Shunga qaramasdan, oliy ta'lim tizimida xarajatlarning uchinchi guruhi bo'yicha markazlashtirilgan moliyalashtirish amaliyoti saqlanib qolayotganligi sababli mazkur moddaning to'liq ijrosi ta'minlanmayapti.

Ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida innovatsion rivojlantirish maqsadida xarajatlar smetasining III-guruhidagi "Kapital qo'yilmalar" xarajatlarini amalga oshirishda budjet tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berish zarurligi asoslandi.

Hozirgi paytda budjet tashkilotlari tomonidan joriy va kapital ta'mirlash hamda kapital qurilish jarayonlarida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, G'aznachilik organlari va tijorat banklari o'rtasida uzoq va murakkab jarayonlardan o'tishga to'g'ri kelmoqda.

Daromadlar va xarajatlar smetasini tuzishning me'yoriy asoslari "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomda batafsil bayon etilgan.

Shuningdek, kapital qo'yilmalar rejasi va dasturi oliy ta'lim muassasasi Kengashi va Kuzatuv kengashi qarori bilan bir yil oldin tasdiqlansa, va ushbu xarajatlar tender asosida amalga oshirilib, qat'iy moliyaviy nazoratga olingan taqdirda, budjet tashkilotlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash uchun qulay sharoit yaratilgan bo'lar edi.

Ta'lim tizimidagi budjet muassasalari buxgalteriya hisobida tashkilot tasarrufidagi mablag'lar va ularning manbalari harakati bilan bog'liq o'zgarishlar aks ettiriladi hamda tashkilotning daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari kabi, budjet tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobining asosiy talablaridan biri — sodir etilgan har bir xo'jalik muomalasi bo'yicha dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos obyektlari quyidagilardan iborat: nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, moliyaviy natijalar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik muomalalari.

Xarajatlar hajmining guruhlar va paragraflari bo'yicha o'zgartirish kiritish vakolati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishlidir.

Ajratilgan mablag'larni tegishli paragraflar va guruhlar bo'yicha tayinlanishiga qarab to'g'ri sarflash uchun budjet tashkilotlari rahbarlari va bosh buxgalterlari bevosita javobgardirlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xatiga binoan, Moliya vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 125-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Budjet hisobining 2-sonli standarti — "Yagona schyotlar rejasi" 2024-yil 1-yanvardan UzASBO-2 dasturiy majmuasiga joriy etildi.

Budjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosining moliyaviy tahlili o'tkazildi. Smeta xarajatlari hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari chuqur tahlil etilib, oliy ta'lim muassasalarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisob yuritish amaliyotini takomillashtirish zaruriyati asoslab berildi.

980000 – "Budjet tashkilotlarining jamg'arib boriluvchi moliyaviy natijalari" sintetik schyotining debet tomonida smeta xarajatlarning yil yakunida hisobdan chiqarilgan haqiqiy xarajatlari aks ettiriladi (3-jadval).

Debetlanuvchi subschotlar	Kreditlanuvchi subschotlar
981 000 – "Budjet mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija"	710 000 – "Budjet mablag'laridan hisoblangan haqiqiy xarajatlar"
982 000 – "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija"	720 000 – "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar"
983 000 – "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar"	730 000 – "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar"

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti daromad va xarajatlar smetasi ijrosining 2020-2024-yillardagi o'zgarishi tahlili. (3-jadval)



3-jadval. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti daromad va xarajatlari smetasi ijrosining 2020-2024-yillardagi o'zgarishi tahlili, mln so'm

Moliyalashtirish manbai	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2020-yilga nisbatan 2024-yildagi o'sish, %da	
	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
Budjetdan ajratilgan mablag'lar	10 583,452	10 533,542	16 977,431	15 947,339	24 252,1	24 121,2	32 899,5	32 676,1	48 487,565	48 487,565	458,1	460,3
To'lovshartnoma mablag'lari	85 504,258	57 147,025	135 448,454	77 732,549	211 456,9	184 562,1	228 795,6	186 687,1	218 077,305	381 370,0	255,05	667,3
Qo'shma ta'lim dasturlari mablag'lari	6 132,953	2 192,741	9 712,373	6 031,09	24 565,4	20 145,9	27 111,3	24 663,2	36 781,9	38 972,2	599,7	1777,3
Innovatsiya jamg'arma mablag'lari	420,379	419,207	415,715	329,859	2 101,4	1 998,5	2 401	2 561,9	5 689,1	4 320,8	1353,3	1030,7
Rivojlantirish jamg'arma mablag'lari	5 604,228	4 677,325	4 856,113	2 542,803	6 542,1	4 754,4	8 602,1	6 994,6	9 762,1	12 562,1	174,2	268,5
Jami:	108 245,27	74 969,84	167 410,09	102 583,64	268 917,9	235 582,1	299809,5	253 582,9	311 120,9	483 393,9	294,5	647,9
Moliyaviy holat	Profitsit		Profitsit		Profitsit		Profitsit		Profitsit			

Manba: Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimidagi budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha smeta ijrosi profitsit bilan yakunlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida smeta xarajatlari ijrosining hisobi va auditi nazariy hamda tashkiliy jihatdan chuqur tadqiq etilishi, budjet muassasalari smeta xarajatlarning iqtisodiy mohiyatini, tarkibiy qismlarini tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mazkur muassasalardagi xarajatlar smetasining asosiy qismi davlat budjetidan moliyalashtirilayotganligi sababli, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash va ular to'g'risida ishonchli axborot shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mablag'lar hisobini amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritish zarur.

Bugungi kunda xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning ochiqligi, xodimlarning faol ishtiroki orqali xolislik va shaffoflikni ta'minlash imkoniyati mavjud. Budjet mablag'larini shakllantirish va sarflash holati bo'yicha aniq, tezkor ma'lumotlar olish imkoniyati yuqorilamoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar bildiriladi:

Oliy ta'lim muassasalarining shtatlar jadvali namunaviy shtatlar asosida shakllantirilishi, tarifikatsiyalarni tuzishda xodimlar tarkibi bo'yicha vakantlikka yo'l qo'ymaslik, shuningdek, kontingent o'zgarishlariga moslashtirish zarur;

Xarajatlar smetasining to'rtinchi guruhi – kommunal xizmatlar xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asoslangan bo'lishi ta'minlanishi lozim;

Xarajatlar smetalarni ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini kengaytirish orqali jarayonni soddalashtirish, shuningdek, smetalarga o'zgartirishlar kiritilishining oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish;

Xarajatlar smetasining ijrosi hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va nazoratni takomillashtirish bo'yicha uslubiy asoslarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – T.: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PQ-54, 2024-yil 2-fevral. <https://lex.uz/pdfs/6788002>
- "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 2010-yil 19-noyabr, 2157-son. <https://lex.uz/uz/docs/-1704945>



4. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. // Qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 52-I-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: – 2018-yil 1-yanvar, 03/18/454/0493-son: <https://lex.uz/ru/docs/-2304138?ONDATE=01.01.2018> – 2018-yil 5-yanvar, 03/18/456/0512-son: <https://lex.uz/docs/-3486595> – 2018-yil 24-iyul, 03/18/486/1559-son: <https://lex.uz/docs/-3832383> – 2018-yil 27-iyul, 03/18/488/1579-son: <https://lex.uz/uz/docs/-3837264>
5. "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom. Ro'yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr. <https://lex.uz/docs/2520442>
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 06/03-16-/21-son xatiga 1-ilova. "Yangi va amaldagi schyotlar rejasi bo'yicha o'zaro muvofiqlik jadvali".
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018-yil 10-sentabrda 125-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) – "Yagona schotlar rejasi" to'g'risida. // O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 20-oktabrda 3078-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 12-dekabrda 91-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (1-sonli BHS) – "Hisob siyosati" to'g'risida. // O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 27-dekabrda 2853-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz

Ilova -1

Moliyalashtirish manbai	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2020-yilga nisbatan 2024-yildagi o'sish, %da	
	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
Budgetdan ajratilgan mablag'lari	10 583,452	10 533,542	16 977,431	15 947,339	24 252,1	24 121,2	32 899,5	32 676,1	48 487,565	48 487,565	458,1	460,3
To'lovshartnoma mablag'lari	85 504,258	57 147,025	135 448,454	77 732,549	211 456,9	184 562,1	228 795,6	186 687,1	218 077,305	381 370,0	255,05	667,3
Qo'shma ta'lim dasturlari mablag'lari	6 132,953	2 192,741	9 712,373	6 031,09	24 565,4	20 145,9	27 111,3	24 663,2	36 781,9	38 972,2	599,7	1777,3
Innovatsiya jamg'arma mablag'lari	420,379	419,207	415,715	329,859	2 101,4	1 998,5	2 401	2 561,9	5 689,1	4 320,8	1353,3	1030,7
Rivojlantirish jamg'arma mablag'lari	5 604,228	4 677,325	4 856,113	2 542,803	6 542,1	4 754,4	8 602,1	6 994,6	9 762,1	12 562,1	174,2	268,5
Jami:	108 245,27	74 969,84	167 410,09	102 583,64	268 917,9	235 582,1	299809,5	253 582,9	311 120,9	483 393,9	294,5	647,9
Moliyaviy holat	Profitsit		Profitsit		Profitsit		Profitsit		Profitsit			



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>